

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INKLYUZIV TA'LIM ORQALI TOLERANTLIKNI
SHAKLLANTIRISH****Nazimjonova Mo'mina Nizomiddin qizi****Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti,****Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi****nazimjonovamomina@gmail.com****<https://doi.org/10.5281/zenodo.21289384>**

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida inklyuziv ta'lim orqali o'quvchilarda tolerantlikni shakllantirish masalalari, inklyuziv ta'limning mazmun-mohiyati, uning o'quvchilar tarbiyasidagi ahamiyati hamda bag'rikenglikni rivojlantirishdagi o'rni, boshlang'ich sinf o'quvchilarida tolerantlikni shakllantirishning pedagogik usullari, o'qituvchining roli va inklyuziv muhitning afzalliklari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlari: Inklyuziv ta'lim, tolerantlik, boshlang'ich ta'limda tolerantlikni shakllantirish usullari, guruhli ishlash, rolli o'yinlar, tarbiyaviy suhbatlar, hamkorlikdagi ijodiy faoliyat, multimedia vositalari, inklyuziv muhit yaratish, inklyuziv ta'limning afzalliklari, o'qituvchining roli.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы формирования толерантности у учащихся посредством инклюзивного образования в процессе начального образования, содержание и сущность инклюзивного образования, его важность в воспитании учащихся и роль в развитии толерантности, педагогические методы формирования толерантности у учащихся начальной школы, роль учителя и преимущества инклюзивной среды.

Ключевые слова: Инклюзивное образование, толерантность, методы формирования толерантности в начальном образовании, групповая работа, ролевые игры, образовательные беседы, совместная творческая деятельность, мультимедийные инструменты, создание инклюзивной среды, преимущества инклюзивного образования, роль учителя.

Abstract. This article discusses the issues of forming tolerance in students through inclusive education in the process of primary education, the content and essence of inclusive education, its importance in the education of students and its role in developing tolerance, pedagogical methods for forming tolerance in primary school students, the role of the teacher, and the advantages of an inclusive environment.

Keywords: Inclusive education, tolerance, methods of building tolerance in primary education, group work, role-playing games, educational conversations, collaborative creative activities, multimedia tools, creating an inclusive environment, advantages of inclusive education, role of the teacher.

Bugungi kunda ta'lim tizimida barcha bolalar uchun teng imkoniyat yaratish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Jamiyatda insonparvarlik, bag'rikenglik va o'zaro hurmat muhitini shakllantirishda inklyuziv ta'lim muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarda tolerantlikni rivojlantirish kelajakda sog'lom ijtimoiy munosabatlarni qaror toptirishga xizmat qiladi. Chunki aynan shu yosh davrida bolalarning dunyoqarashi, axloqiy sifatleri va jamiyatga bo'lgan munosabati shakllanadi.

Inklyuziv ta'lim barcha bolalarning, jumladan imkoniyati cheklangan o'quvchilarning ham teng huquqli ravishda ta'lim olishiga imkon yaratadi. Bunday muhitda ta'lim olgan o'quvchilar bir-birini tushunish, hurmat qilish va yordam berish kabi insoniy fazilatlarini egallab boradi. Shu sababli inklyuziv ta'lim orqali tolerantlikni shakllantirish masalasi zamonaviy pedagogikaning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

2020-yil 23-sentyabr kuni qabul qilingan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuniga ilk bora "Inklyuziv ta'lim" iborasi qo'llanildi.

Inklyuziv ta'lim – bu barcha o'quvchilarga, ularning qobiliyatlari va ehtiyojlaridan qat'iy nazar, teng va sifatli ta'lim olish imkoniyatini taqdim etishdir. Shu bilan birga, inklyuziv ta'lim jamiyatda bag'rikenglik, hurmat va tolerant muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

¹Mamlakatimizda inklyuziv ta'limni ta'lim oluvchilarning ijtimoiy ehtiyojlari va shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida tashkil etishning huquqiy – me'yorlari ishlab chiqilgan. "Alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'limni tashkil etish maqsadida ta'lim muassasalari moddiy texnika bazasini mustahkamlash, o'quv dasturlarini adaptivlashtirish, sog'lomlashtiruvchi sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish hamda bu jarayonga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash" kabi muhim vazifalar belgilandi.

Tolerantlik – bu boshqalar fikr, e'tiqod va qadriyatlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish, ularni qabul qilish va o'zaro aloqalarda sabr-toqat ko'rsatishdir. Tolerantlik nafaqat shaxsiy sifat, balki ijtimoiy munosabatlarning asosiy tamoyillaridan biridir. O'quvchilar orasida tolerantlikni rivojlantirish, o'zaro muloqot va hamkorlikni kuchaytiradi, shuningdek, jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta'minlaydi².

Tolerant muhit va uning ahamiyati

³Tolerant muhit – bu o'quvchilar o'zlarini qabul qilingan, xavfsiz va hurmatga sazovor his qiladigan makon. Bunday muhitda farqliliklar salbiy qarorlar va diskriminatsiyasiz qabul qilinadi, hamda o'quvchilar bir-biriga yordam berish va hamkorlik qilishga o'rgatiladi. Tolerantlik boshqalarning fikri, xulqi va imkoniyatlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tolerantlikni shakllantirish orqali jamiyatda insonparvarlik va hamjihatlik muhiti yaratiladi. Ayniqsa, inklyuziv sinflarda ta'lim olayotgan bolalarda mehribonlik va hamkorlik hissi kuchayadi. UNESCO tomonidan tolerantlik "Insonlar o'rtasidagi xilma-xillikni qabul qilish, bir-birini tushunishga intilish va o'zaro hurmat tamoyillariga asoslangan faol munosabat" sifatida ta'riflanadi.

Boshlang'ich ta'limda tolerantlikni shakllantirish usullari.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarda tolerantlikni shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, inklyuziv ta'lim muhitida bolalarda o'zaro hurmat, mehr-oqibat va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish zarurdir. Quyidagi usullar tolerantlikni shakllantirishda samarali hisoblanadi:

Guruhli ishlash metodlari

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги ПФ-4947-сонли Фармони.

² Islom bag'rikenglik va mutaassiblik. Mas'ul muxarrir, Z.I. Munavvarov. T. 1998-26-bet.

³ INKLYUZIV TA'LIM: TOLERANT MUHITNI YARATISH RESURSI
SIFATIDA Bazarova Nozima Abduqahharova <https://scientific-jl.com/luch/>

O'quvchilarni kichik guruhlarda ishlashga jalb qilish orqali ularda bir-birining fikrini tinglash, hamkorlik qilish va o'zaro yordam berish ko'nikmalari rivojlanadi. Guruhli topshiriqlar o'quvchilarning jamoada ishlash madaniyatini shakllantiradi.

Rolli o'yinlardan foydalanish

Rolli o'yinlar orqali bolalar turli vaziyatlarni his qilish va boshqalarning holatini tushunishni o'rganadilar. Bu usul o'quvchilarda empatiya va bag'rikenglik hissini kuchaytiradi.

Tarbiyaviy suhbatlar tashkil etish

Dars va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda do'stlik, hurmat, insonparvarlik mavzularida suhbatlar o'tkazish tolerant munosabatlarni rivojlantiradi.

Hamkorlikdagi ijodiy faoliyat

Rasm chizish, loyiha tayyorlash, sahna ko'rinishlari va STEAM asosidagi jamoaviy ishlarda o'quvchilar birgalikda faoliyat olib boradi. Bu esa ularning o'zaro munosabatlarini mustahkamlaydi.

Multimedia vositalaridan foydalanish

Videoroliklar, animatsiyalar va ta'limiy taqdimotlar orqali o'quvchilarga tolerantlikning mazmuni tushuntiriladi. Ko'rgazmali materiallar bolalarda mavzuga qiziqishni oshiradi.

O'qituvchining shaxsiy namuna ko'rsatishi

Pedagogning barcha o'quvchilarga teng va hurmat bilan munosabatda bo'lishi bolalar uchun muhim namuna hisoblanadi. O'qituvchining muomalasi sinfdagi ijobiy muhitni shakllantiradi.

Inklyuziv muhit yaratish

Imkoniyati cheklangan va sog'lom bolalarning birgalikda ta'lim olishi o'quvchilarda bir-birini tushunish va qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa tolerantlikning shakllanishiga xizmat qiladi.

Inklyuziv ta'limning afzalliklari

⁴Keng doirada o'quvchilarga imkoniyatlar: Inklyuziv ta'lim barcha o'quvchilarga, xususan yengilmas va xavfsiz bo'lganlar, o'zlashtirilgan ta'limni taqdim etadi. Bu o'quvchilarning rivojlanishi va o'zlashtirilishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Taqiqlangan o'quvchilarga qo'llab-quvvatlov: Inklyuziv ta'lim taqiqlangan o'quvchilarga (masalan, yengilmas yoki xavfsiz bo'lganlar) qo'llab-quvvatlash beradi va ularning o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

O'quvchilarning qobiliyatlari va xohishlariga e'tibor: Inklyuziv ta'lim barcha o'quvchilarning individual qobiliyatlari va xohishlariga e'tibor qiladi. Bu shuningdek, o'quvchilarning o'zlashtirilish yo'li va tezligiga mos ravishda o'qitishni ta'minlaydi

O'qituvchining roli

Ta'lim pedagogikasi uchun integratsiyalashtirilgan maxsus pedagogika, amaliy stajirovkalar, mentorlik va hamkasblar bilan hamkorlik modelini joriy etish lozim. O'qituvchilar uchun doimiy, sinfga yo'naltirilgan va hamkasblararo muhokamalar haqiqiy o'zgarishlarga olib keladi. Sinfdagi aniq strategiyalar – differensial topshiriqlar, guruh ichida moslashtirish, ko'p darajali qo'llab-quvvatlash, ota-ona hamkorligi va tashqi mutaxassislar (logoped, psixolog, maxsus pedagog) bilan integratsiyalashtirilgan xizmatlar o'quvchilarning erishuvini ta'minlashda samarali bo'ladi. Bu

⁴ INKLYUZIV TA'LIMNING AFZALLIK VA KAMCHILIKLARI
Haydarova E'zoxon Ulug'bek Qizi "ЗА НАИВЫСШИЕ ЗАСЛУГИ"
МЕЖДУНАРОДНЫЙ КОНКУРС НА УЧНЫХ РАБОТ

usullar yagona “retsept” emas; ular sinf, o‘quvchi va muassasa kontekstiga mos ravishda qo‘llanishi kerak.

Shuningdek, inklyuziv ta‘limni amalga oshirishda maktab boshqaruvi, resurslar, siyosiy iroda va jamiyat qadriyatlari kabi tizimli omillar ham hal qiluvchi ahamiyatga ega; ular o‘qituvchilarning tayyorgarligini qo‘llab-quvvatlaydigan muhitni yaratishi yoki, aksincha, to‘siq bo‘lishi mumkin. Siyosat darajasidan boshlab mahalliy maktabgacha bo‘lgan har bir bosqichda aniq strategiya va resurslar ajratilmasa, yaxshi niyatlar amaliyotga to‘liq o‘tmaydi.

Umuman olganda, inklyuziv ta‘limda o‘qituvchilarning roli ko‘p qirralidir: ular diagnostikadan tortib, metodik qo‘llab-quvvatlash, ruhiy emotsional yordam va hamkorlikni tashkil etishgacha bo‘lgan majburiyatlarni bajaradilar. Shuning uchun ularning kasbiy tayyorgarligi tizimli, amaliy va doimiy bo‘lishi lozim. Inklyuzivlikka yo‘naltirilgan o‘qituvchi tayyorgarligi faqat kurslar bilan cheklanmasligi, balki haqiqiy sinf sharoitida qo‘llab-quvvatlanib, baholab borilishi kerak.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich ta‘limda inklyuziv ta‘lim orqali tolerantlikni shakllantirish o‘quvchilarning har tomonlama barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetishida muhim ahamiyatga ega. Inklyuziv ta‘lim muhiti bolalarda o‘zaro hurmat, mehr-oqibat, hamkorlik va bag‘rikenglik kabi insoniy fazilatlarni rivojlantiradi. Ayniqsa, imkoniyati cheklangan bolalar bilan birgalikda ta‘lim olish jarayoni o‘quvchilarning bir-birini tushunishi va qo‘llab-quvvatlashiga xizmat qiladi.

Shuningdek, boshlang‘ich sinfda tolerantlikni shakllantirishda o‘qituvchining pedagogik mahorati, zamonaviy metodlardan foydalanish hamda sog‘lom psixologik muhit yaratish muhim omil hisoblanadi. Inklyuziv ta‘lim orqali jamiyatda tenglik, insonparvarlik va ijtimoiy adolat tamoyillari mustahkamlanadi. Shu bois ta‘lim jarayonida inklyuziv yondashuvni keng qo‘llash va o‘quvchilarda tolerantlikni rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Inklyuziv ta‘limda o‘qituvchilarning roli va tayyorgarligi. Xasanova Iroda Ikromjon qizi AVPMM Pedagogika va psixologiya, Ta‘lim texnologiyalari kafedrası o‘qituvchi Maktabgacha va maktab ta‘limi 2025-yil, sentyabr, 9-son.
2. <https://kun.uz/uz/92037082>
3. <https://www.unicef.org/uzbekistan/uz/inklyuziv-talim>